

BOLA TARBIYASIDA OILANING TUTGAN O'RNI

Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lif fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola tarbiyasida oila muhiti va ota-onan munosabatlariiga oid masalalar qaraladi. Maqoladan bo'lajak mutaxassislar o'z kasbiy faoliyatiga oid intellektual salohiyatini tarkib toptirish bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Oila muloqot, ilk bolalik va maktabgacha yosh, shakllantirish, shaxsiy muvaffaqiyat, tarkib toptirish, ichki va tashqi ta'sirlar, omillar, ota-onan, pedagogik-psixologik bilimlar, ijtimoiy yaqinlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с семейным окружением и родительскими отношениями в воспитании детей. Статья может быть использована будущими специалистами, которые занимаются развитием своего интеллектуального потенциала, связанного с их профессиональной деятельностью.

Ключевые слова: семейное общение, раннее детство и дошкольный возраст, становление, личностная успешность, состав, внутренние и внешние воздействия, факторы, родители, педагогико-психологические знания, социальная близость..

Abstract: This article deals with issues related to the family environment and parental relationships in the upbringing of children. The article can be used by future specialists who are developing their intellectual potential associated with their professional activities.

Keywords: family communication, early childhood and preschool age, formation, personal success, composition, internal and external influences, factors, parents, pedagogical and psychological knowledge, social closeness.

Kelajagi buyuk davlatimizning poydevori mustahkamligini ta'minlash maqsadida hukumatimiz tomonidan sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga etkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilga. Bola

shaxsini shakllantirish, oilaviy munosabatlar, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish doimo insoniyat jamiyatni taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lgan.

Bolalarga ta'lif-tarbiya berishda pedagogika va psixologiya, psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so'ngra mакtabgacha ta'lif muassasida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to'laqonli shakllanish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda insonning shaxs sifatida shakllanishida uzuksiz ta'lifning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblangan ta'lif muassasasi muhim o'rinni tutadi.

Ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariy jihatlarini o'rganish oily pedagogik ta'lilda muhim amliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat – bu insonlar, shu jumladan bolalar muammosi majmuidir. Demokratik jamiyatning rivojlanishi va ma'naviy salohiyati ko'p jixatdan ana shu bolalarga beriladigan psixologik, tarbiyaviy ta'lif mazmuniga bog'liq. Har bir bola jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rinni va mustaqil mavqe egallashga intiladi, shuning uchun u o'ziga xos intilish, layoqat va faoliy, intelektual mehnat namunalarini namoyish etadi. Bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda har bir shaxsning jamiyatdagi o'rni va uning turlicha ijtimoiy munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator pedagogic fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida psixologiya alohida o'rinni egallaydi. Oila – bu jamiyatning bir b o'g`inidir. Shunday ekan bola tarbiyasida oilaning tutgan o'rni katta ahamiyatga ega. Agar farzand yoshligidan to'g`ri tarbiyalansa, kelajakda jamiyat uchun munosib shaxs bo'lib yetishadi. Albattra bunga ota-onaning o'rni katta, o'z farzandiga bo'lgan munosabati, kattalarga bo'lgan hurmati, ota-onaning bir biriga bo'lgan hurmati alohida ahamiyatga ega. Agar yosh bolaning oldida yolg'on gapirsa, bilamizki, bolalar kichkinligida juda ham qiziquvchan va ko'p savol beradigan bo'lishadi agarda ular so'ragan narsalarda yolg'on ishlatsak ularda shu narsaga nisbatta boshqacha fikir paydo bo'lib qoladi. Bola shu narsaga asta sekinlik bilan ko'nikib boradi va unga siz o'rgatmasangiz ham ba`zida yolg'on gapiradi, aldaydi. Lekin bu narsaga hech qachon ota-ona o'zini ayblamaydi aksincha farzandini koyiydi.

Ingliz filosofi DJ.Lokkning fikriga ko'ra "bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo'lgan oq qog'ozga o'xshaydi" bu oppoq qog'ozni yaxshi narsalar bilan ham yomon narsalar bilan ham to'ldirish ota-onaga bog'liq.

Bola tarbiyasida ota-onada birdek masulyatga ega bo'lishi lozim. Faqatgina ona yoki ota tarbiyasi bola tarbiyasining shakillanishida noto'g'ri tasir ko'rsatishi ham mumkin.

Hozirgi kunda ajralishlar soni keskin ko'payib ketigan bu hol bola tarbiyasiga ham tasir ko'rsatmay qolmaydi. Oilada yolg'iz ona farzandini tarbiyalasa yoki ota yolg'iz tarbiyalasa, atrofdagi munosabatlar bolada ota-onaga nisbattan ishonchszilik, nafrat tuyg'ularini shakillantiradi. Natijada bolaning ko'ziga go'yoki uni hech kim tushunmaydigandek o'zini yolg'iz his etadi. Barcha odamlarga nisbattan nafrat tuyg'ulari shakllanib boradi. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi.

Kanadalik psixolog A.Bandurasing fikricha, bola ilk davrlaridagi shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi. Bola o'zi uchun ideal inson qilib o'zgalarni emas ota-onasini ideal inson sifatida ko'rishi kerak.

Avvalambor bola tarbiyasida oila mustaxkamligi birinchi o'rinda turadi. Onamiz bizni odobli, tartib-intizomli, mehribon, ozodalikka riosa qiladigan, kattalar va kichiklarga hurmatda bo'ladigan qilib tarbiyalasa, otamiz esa bizni masuliyatli, qatiyatli, kuchli, o'ziga ishonadigan, sabr-bardoshli qilib tarbiyalaydi. Bola boshqa muhitga tushib qolganida kattalarga hurmati, dunyoqarashi, har qanday vaziyatda o'zini tuta ola bilishi oilada ko'rgan tarbiyasini yuzaga keltirib chiqaradi. Albatta bola tarbiyasining shakillanishida ota – ona asosiy rolda bo'lishi lozim. Bolaning hayotdagi eng birinchi ustozи bu uning ota-onasi, oilasi bo'ladi. Oiladagi muhit qanchalik yaxshi bo'lsa bolaning xulq-atvori, boshqalar oldida o'zini tutishi, odobi yaxshi shakllanib boradi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, haddan tashqari qattiq qo'llik qilmasdan yaxshi yo'l bilan tushuntirsa va bu ish noto'g'ri ekanligini ta'kidlasa bola boshqa bu ishni takrorlamaydi. O'zbek xalqi juda ham bolajon xalq bo'lib, bolaning tarbiyasiga alohida e'tabor qaratadi, o'qib bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Kelajak avlodni barkamol ablid bo'lib ulg'ayishida oila muhiti, ota-onalarning pedagogik- psixologik bilimlarini yetarli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сон фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. – 6 (766)-сон. – Б.140.
2. Бекова.Ш.Ж Мактабгача ёшдаги болаларда шахслараро муносабатга киришишнинг психолигик жиҳатлари. //Аҳолининг психолигик саломатлиги- жамият фаровонлигини таъминлашнинг мухим омили сифатида Ҳалкаро имий – амалий анжуман// Фарғона, 2020 . Б.201 – 203.
3. Muhammedova D.G` , Mullaboyeva.N.M, Rasulov.A.I. "Umumiy psixalogiya" Toshkent-2017.
4. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
5. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.
6. Bekmirov, T., Axmedova, M., Melibayeva, R., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). Kasbiy pedagogika.
7. Бекмиров, Т. Р. (2019). Professional pedagogy of higher education as an important factor. *Интернаука*, (44-2), 61-62.
8. Нурматов, А., & Бекмиров, Т. (2021). Развитие креативности будущего учителей в процессе (Doctoral dissertation, Тошкент).